

**DARS MASHG'ULOTLARIDA MULTIMEDIYA
VOSITALARIDAN FOYDALANISH TA'LIM SAMARADORLIGINI
OSHIRADI**

Mutalova Marhamat Akramovna

*- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq
filiali "Konchilik" kafedrasida dotsenti.*

Xolmatova Sarvinoz Ulug'bek qizi

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Olmaliq
filiali "Konchilik" kafedrasida assistenti.*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada multimedialiy vositalar yordamida talabalarni o'qitishning afzalliklari, multimedialiy vositalarining texnik vositalari, axborot texnologiyalarining rivojlanishining ta'lim jarayoniga ta'siri va natijaviyligiga doir fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *multimedia, multimedialiy ta'lim, multimedialiy ta'lim dasturlari, kompyuterli muhit, virtual stend, matn, tovush, grafik va rasmlar.*

Texnologiyaning rivojlanishi o'quv ta'lim jarayoniga innovatsiyalar olib keldi va multimedialiy o'quv muhitini rivojlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda har bir kishining ish faoliyatida doimiy ravishda multimedialiydan foydalanish ehtiyoji mavjud. Multimedia texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim sifatini hamda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy o'qituvchilar ta'lim dasturlari, raqamli ta'lim resurslari va axborot resurslaridan foydalanishlari, kerakli ma'lumotlarni topishlari va ta'lim masalalarini hal qilish uchun moslarini tanlashlari, axborot vositalaridan, shuningdek skanerdan, raqamli suratga olish moslamalari, videokamera, raqamli mikroskop, proyeksiya uskunalardan foydalanishni bilishlari kerak. Pedagogik kadrlarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta'lim jarayoni axborot va axborot

texnologiyalari tizimi haqida chuqur bilim berish zarur. Ayni paytda o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tomonidan taqdim etilgan zamonaviy jihozlardan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Dars sifatini oshirish uchun internetdan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- O'qituvchilarning kasbiy mahorati sohasidagi imkoniyatlar;
- O'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish;
- O'qituvchilarning o'z kasbiga ijodiy yondashishlari uchun ko'plab imkoniyatlar;
- O'qituvchilarning mustaqil ta'lim olishlari va masofaviy ta'lim olishlari uchun keng imkoniyatlar;

Bugungi kunda o'qitish sifatini oshirish o'qituvchidan keng ko'lamli bilim va malakalarni talab qilmoqda. Chunki bugungi kunda talabalar ham zamonaviy texnologiyalar bo'yicha ma'lum darajada bilimga ega. O'quvchilar o'qituvchidan bilim olishi bilan birga atrof-muhit haqidagi bilimlarni ham o'zlashtirgani yaxshi, deb o'ylayman. Shu bois, bugungi kunda o'qituvchilarning innovatsion texnologik ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirish zarurati paydo bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etishdan maqsad o'quvchilarni zamonaviy axborot va texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish, bu boradagi savodxonligini oshirish, eng muhimi, ushbu ma'lumotlardan foydalanish malakasini oshirishdan iborat.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutishi mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish(video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi. Multimedia vositalari yordamida axborotlarni matnli, tasvirli, tovushli va

animatsiyali ko‘rinishda namoyish etish mumkin. Multimediali axborot resurslari animatsiyali, audio va video ma’lumotlardan tarkib topadi.

Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o‘zlashtirish imkoni bor;

- Ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

- Ta’lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

- O‘qituvchi sinfda bo‘lishi shart emas;

- Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniga erishiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, multimediali ta’lim muhiti o‘rganishni osonlashtiradi va oshiradi. Multimedia ko‘p his-tuyg‘ularni jalb qilish uchun yaratilgan. Kompyuter muhitida multimedia texnologiyalari bilan boyitilgan real yoki virtual tasvirlar, matnlar, tovushlar, grafiklar va rasmlar malakali ta’lim dasturlarini tayyorlashga yordam beradi. Grafika, video, animatsiya va ovoz kabi turli xil vositalar birgalikda taqdim etilganda o‘rganish muhitida farqlash orqali o‘rganishni osolashtiradi va oshirishi mumkin deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ta’limda axborot texnologiyalari o‘quv qo‘llanma / R.X. Ayupov. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. – T.: TDPU, 2020 yil

2. Maqsudov, U. Q. (2020). Stages and forms of development of social activity of primary school students through people’s oral creativity.

ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 1365- 1368.

3. 1. Azamxonov, B.S. & Burxonova, M.M.(2023). Oliy o'quv yurti talabalarining axborot kompetentsiyasini shakllantirish usullari. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (17), 308-311.
4. . Burxonova M.M. CISCO tarmoq texnologiyasi va uni kompyuter tarmoqlarini o'qitishdagi o'rni va samaradorligi. Интернаука. 2020. № 36 (165). С. 75-76.